OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI QABILALARI HARBIY JARAYONLARI XAQIDAGI TADQIQOTLAR

Botirova Nafosat Xurmatbek qizi,
UrDU, Tarix kafedrasi v.b. dotsenti, PhD.
E-mail: nafosatbotirova90@gmail.com
nafosatbotirova9@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19690583

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning 70-90 yillari davrida Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’ati tarixiga yaxlit Yevrosiyo dashtlari ko‘chmanchi qabilalarining harbiy san’ati bilan uzviy bog‘liqlikda aks etgan hamda qiyosiy tahlil asosidagi tadqiqotlar, hamda hozirgacha bu an’ana asosida yangi tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu an’ana jahon harbiy tarixida birinchi otliq qo‘shinlarning paydo bo‘lishi, birinchi og‘ir qurollangan otliq qo‘shin turi – “katafraktariylarning” vatani kabi mavzularda yaqqol ko‘zga tashlanib, bu masalalar haligacha dolzarbligicha qolmoqda. Zero, mazkur masalalar bo‘yicha shakllangan har qanday fikr – mulohazalar va takliflar ko‘chmanchilar dunyosi bilan bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *ziroatkor, “Konnisa Kangyuya”, ko‘chmanchilar, sarmatlar, harbiy taktika, qurol – aslaha, o‘g‘uz-turkman qabilalari, otliq qo‘shin, ko‘chmanchi chorvadorlar harbiy.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исследования, основанные на сравнительном анализе истории военного искусства кочевых племен Приаралья в 70-90-е годы XX века в неразрывной связи с военным искусством кочевников евразийских степей; при этом исследования в данном направлении продолжаются и по сей день. В частности, эта традиция ярко проявляется в изучении таких актуальных тем, как появление первых конных войск в мировой военной истории и определение родины первых тяжеловооруженных всадников — «катафрактариев». Любые мнения и предложения по данным вопросам неразрывно связаны с миром кочевников.*

Ключевые слова: *земледелец, «Конница Кангюя», кочевники, сарматы, военная тактика, вооружение, огузо-туркменские племена, конница, военное дело кочевников-скотоводов.*

Abstract. *This article examines studies based on a comparative analysis of the history of the military art of the Aral Sea nomadic tribes during the 1970s–1990s, viewed in inseparable connection with the military traditions of the Eurasian steppe nomads; such research continues to be developed today. This tradition is particularly prominent in discussing topics such as the emergence of the first cavalry in world military history and the origins of the "cataphracts"—the first heavy cavalry—issues that remain highly relevant. Indeed, all perspectives and proposals formed on these matters are intrinsically linked to the nomadic world.*

Keywords: *agriculturist, "Kangyu Cavalry", nomads, Sarmatians, military tactics, weapons and armor, Oghuz-Turkmen tribes, cavalry, military affairs of nomadic pastoralists.*

Kirish. XX asrning 30 – 90 yillarida O‘rta Osiyo respublikalari hududlarida juda ko‘plagan arxeologik ekspeditsiyalar ish olib bordi. Mazkur hududlardagi ko‘plab tarixiy obidalarda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida, qisman bo‘lsa ham O‘rta Osiyoning qadimgi ziroatkor aholisining va ular bilan bog‘liqlikda ularga qo‘shni ko‘chmanchi qabilalarning harbiy san’at tarixi o‘rganildi hamda uning

natijalari keng ilmiy jamoatchilikka e'lon qilindi.[1] Jumladan, S.P.Tolstov boshchiligida XX asrning 30 – 70 yillarida Xorazm arxeologik-etnografik ekspedisiyasining faoliyati boshlanib, Amudaryoning o'ng va so'l sohili hududlarida olib borilgan arxeologik qazish ishlari jarayonida ilk bor qo'shni ko'chmanchi qabilalarning O'rta Osiyo harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tganlar. Shu davrdan boshlab Orolbo'yi harbiy tarixini arxeologik ashyolarga tayanib o'rganishning amaliy imkoni paydo bo'ldi. U o'zining 1948 yilda chop etilgan monografiyasida qadimgi Xorazm hududidagi mudofaa istehkomlari bilan bir qatorda Orolbo'yi ko'chmanchilarning harbiy sohasi haqida ham ma'lumot berib o'tadi.[2]

Mazkur monografiyaning "Konnisa Kangyuya" ("Qang' otliqlari") deb nomlangan bandida Qadimgi Xorazmda qurollanish va qo'shin tuzilishi masalasi ilgari surilgan. Monografiya muallifining fikriga ko'ra, mil. avv. VI-V asrlarga kelib, massagetlar va xorazmliklar jamiyatida metall plastinalardan iborat sovut bilan himoyalangan yoydan o'q uzuvchilar va nayza otuvchilarning otliq qo'shinlari shakllangan. Otga ham sovut yopilgan. Ushbu toifa jangchilar yunoncha "katafraktariylar" deb atalgan.[3]

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalariga tegishli tarixiy yodgorliklardan qadimgi va o'rta asrlarga oid harbiy san'at sohasi tarixini o'rganish uchun muhim bo'lgan noyob ashyolar topib o'rganildi. Olingan ashyoviy manbalar asosida O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'atining taraqqiyoti va xususiyatlarini tahlil qilish asosida ko'chmanchi qabilalarning mazkur sohaga ta'siri qay darajada bo'lganligi masalasi ham qiyosiy tahlil asosida tadqiq qilindi. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotida ko'chmanchi qabilalarning o'rni masalasiga yetarlicha ilmiy-tarixiy baho berilmagan. Bu masalalar so'ngi yillarda paydo bo'lgan ko'plab monografiya, risola va maqolalarda yoritila boshlagan bo'lsada, lekin ular O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'atida ko'chmanchi qabilalarning tutgan o'rni masalasining yaxlit manzarasini ochib bera olmaydi.

XX asrning 40-60 yillarida ko'chmanchilar harbiy tarixini aks ettiruvchi ilk tarixshunoslik tadqiqotlari ham chop qilingan. Jumladan, mashhur arxeolog V.D. Blavatskiy, K.F.Smirnov, A.M.Xazanov, A.I.Melyukova, Ye.V.Chernenko sarmatlar va skiflarning qabilalarining harbiy taktika va strategiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan harbiy tarix bo'yicha qilinadigan ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xos tizimini belgilab berdi.[4]

A.A. Roslyakov o'z tadqiqotida asosan o'rta asrlar davri O'rta Osiyo va Qog'og'iston hududlarida yashagan ko'chmanchi qabilalarning harbiy san'ati haqida

yozar ekan, qurol – aslahalar turlari, qo‘shin tuzilishi, ularning janglarda qo‘llagan harbiy usullari va taktikasi masalalariga katta e’tibor qaratgan. Bu tadqiqotning o‘ziga xos tomoni muallif ko‘chmanchi qabilalarining harbiy san’ati taraqqiyotida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va tabiiy – iqlim sharoitlarining o‘rnini ko‘rsatib bergan.[5]

Turkman tadqiqotchisi S.G.Agadjanov IX-XII asrlarda o‘g‘uzlar va turkmanlar tarixi bo‘yicha yozgan kitobida qisqa tarzda bo‘lsada, o‘g‘uz-turkman qabilalarining harbiy san’ati, qo‘shin turlari va harbiy qurol-aslahalar turlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan.[6]

Tadqiqot natijalari. XX asrning 70-90 yillarida Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’ati tarixiga yaxlit Yevrosiyo dashtlari ko‘chmanchi qabilalarining harbiy san’ati bilan uzviy bog‘liqlikda aks etgan hamda qiyosiy tahlil asosidagi tadqiqotlar paydo bo‘ldi hamda hozirgacha bu an’ana asosida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu an’ana jahon harbiy tarixida birinchi otliq qo‘shinlarning paydo bo‘lishi, birinchi og‘ir qurollangan otliq qo‘shin turi – “katafraktariylarning” vatani kabi mavzularda yaqqol ko‘zga tashlanib, bu masalalar haligacha dolzarbligicha qolmoqda. Zero, mazkur masalalar bo‘yicha shakllangan har qanday fikr – mulohazalar va takliflar ko‘chmanchilar dunyosi bilan bog‘liqdir.

B.I.Vaynberg mil. avv. VII-VI asrlarda Orolbo‘yi aholisining qurollanish sohasi qay darajada rivoj topganini arxeologik qazish ishlarida ko‘p uchrab turgan bronzadan yasalgan kamon o‘qlarining tizimlashtirilishini ishlab chiqishda tadqiqotchilar K.F.Smirnov va I.N.Medvedskaya tomonidan taklif qilingan sarmatlar, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston qadimiy kamon o‘qlari klassifikatsiyasiga asoslangan.[7]

Shuningdek, B.I.Vaynberg boshqa qurol turlari – qilich va xanjarlarning rivojlanishi va ulardan jangda foydalanish usullari masalalarini ham ko‘rib chiqqan.[8]

XX asr boshidan – XXI asr boshigacha bo‘lgan davrda yozilgan asarlar tahlil etilib, ko‘chmanchi qabilalarning O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar davlatlari va o‘troq aholisi harbiy san’ati taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi tadqiqot ishlari bilan asosan sovet davri tadqiqotchilari hamda hozirgi davrgacha chet el tadqiqotchilari asarlari kiradi. Jumladan, K.Bosvort, D. Seyagi, Aziz Rabboniy, Z.M.Buniyatov, O.Tonariy, Maryam Gurbuz, Ibrahim Qofaso‘g‘li, Jo‘shqin Erdogan, R.Ismoil, A. Suboshi, S.G. Agadjanov, R.A. Guseynov, S. Axinjanov, Y.V. Pilipchuk, V.M. Zaporojets, Y.O. Agayev, L. Bobrov, M. Gorelik, I.L. Izmaylov, D.M. Timoxin, A. Kushkumbaevlar asarlarida Orolbo‘yi ilk o‘g‘uz qabilalari hamda qipchoq qabilalarining harbiy san’ati hamda bu qabilalarning faqatgina Sharq xalqlari harbiy san’atida emas balkim, Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlari harbiy sohasi

taraqqiyotidagi o‘rni haqida ham nisbatan ko‘proq ma’lumotlar keltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu tadqiqotchilar tadqiqotlarida ilk o‘g‘uzlar va qipchoq qabilalari harbiy san’ati ta’sirida, ayniqsa, saljuqiylar va xorazmshohlar – anushteginiylar davlati harbiy jang usullari, harbiy qurol – aslahalari turlarining takomillashib borganligi to‘g‘risida kengroq ma’lumot bergan bo‘lsalarda, ba’zi o‘rinlarda tahliltalab ma’lumotlarni ham keltirib o‘tadilar. Shuning uchun bu tadqiqotlarning o‘zini chuqur ilmiy tahlil qilgan holda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek O‘rta Osiyo miqyosida ko‘chmanchi chorvadorlar harbiy sohasiga oid N.G. Gorbunova, S.S. Ivanov, V.A. Gaibov, G.A. Koshelenko va L.T. Yablonskiylarning ham ishlari e’tiborga molik.[9]

Ikkinchi guruhni istiqlol yillarida O‘zbekistonlik tarixchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlari mavzuga oid adabiyotlarni tashkil etadi. Ammo, shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, hozirgacha Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining juda qadim zamonlardan mo‘g‘ullar bosqini davrigacha bo‘lgan davri harbiy san’atining o‘troq-dehqonchilik tamaddunlarining va davlatlarining harbiy san’ati taraqqiyotidagi o‘rni masalasiga juda kam e’tibor qaratilgan. Jumladan, F.Hasanov, X.V.Dadaboev, Azamat Ziyo, S.Saburova, Sh.Saidov, D.H. Ziyoyeva, U.Abdullayev, Q.Masharipov, B.Abdirimovlar, A.Yusupov, B.Satimov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bu mavzuga tegishli bo‘lgan masalalar qisman o‘rin olgan.[10]

Ayniqsa, F. Hasanov va jamoa muallifligida yozilgan, O‘rta Osiyo va O‘zbekiston xalqlari harbiy san’ati tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda O‘rta Osiyo xalqlarida shakllangan jang qilish usullari, taktika va strategiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsada, bu masalaning ko‘chmanchilar dunyosi harbiy san’ati taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda yaxlit ilmiy muammo sifatida ochib berilmagan. O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o‘rta asrlar harbiy texnika va san’ati tarixini o‘rganishda arxeologik ashyolar muhim o‘rin egallaydi.

Shunday tadqiqotlardan yana biri A.Yusupovning Orolboyi ilk sak qabilalari tarixiga oid yozma va arxeologik ma’lumotlarni tizimlashtirgan holda yozilgan monografiyasidir. Bu tadqiqotda sak qabilalarining tarixiy geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi va madaniyati bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tiladi, ammo ko‘chmanchilarning harbiy sohasiga tegishli ma’lumotlar qisman keltiriladi.[11]

Bizning dissertatsiyamizga yaqin tadqiqotlardan B. Satimovning Orolbo‘yida qadimgi harbiy ish va mudofaa tizimi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotida Orolbo‘yi qadimgi aholisining harbiy san’ati, qurollanish sohasi, jang taktikasi va mudofaa inshootlari tarixiga oid ma’lumotlar keltirilgan hamda o‘troq aholining harbiy sohasi

ham ko‘rsatib o‘tilgan holda qadimgi davr bilan chegaralangan.[12] Ammo bu tadqiqot ham ko‘chmanchilar harbiy sohasini to‘liq ochib bermagan.

Xulosa. O‘rta Osiyoning 1991-yildan boshlab o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan respublikalari hududlarida arxeologik tadqiqot ishlari yana davom ettirildi. To‘g‘ri, tarixiy yodgorliklarda arxeologik qazishmalar olib borilishi natijasida harbiy san’at taraqqiyoti va bu taraqqiyotda ko‘chmanchi qabilalarning o‘rni masalasini aks ettiradigan juda ko‘plagan arxeologik ashyolar olindi. Arxeologik tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etib kelyaptiki, O‘rta Osiyo tarixiy hududlarida harbiy san’atning taraqqiyoti bosqichlarini to‘la – to‘kis tahlil qilish va shu asosda uzil - kesil xulosalar chiqarish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Ammo, 1991-yildan keyingi ko‘pgina tarixiy tadqiqotlarda har bir respublika o‘z hududi tarixini iloji boricha qo‘shni xalqlarning tarixidan qadimiyroqligini isbotlashga, o‘z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini haddan ziyod oshirib ko‘rsatishga intilishlar kuchayib ketib, bu salbiy holat harbiy san’at tarixida ham o‘z aksini topa boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Литвинский Б.А. Древние кочевники “Крыши мира”. // – М.: ГРВЛ. 1972. – 272 с.; Пянков И.В. Военное дело у народов Средней Азии в VI-IV вв. до н. э. // Вестник древней истории. 1966. – № 3. – С. 36-52.; Никоноров В.П. Вооружение и военное дело в Парфии Диссертация на соискание ycheной степени кандидата исторических наук. Академия Наук СССР Ордена Трудового Красного Знамени, Институт Археологии (Ленинградское отделение), Ленинград, 1987. – 274 с.; Худяков Ю.С.Вооружение средневековых кочевников Южной Сибири и Централной Азии. // Новосибирск: 1986. – 268 с.; Худяков Ю. С. Вооружение центрально-азиатских кочевников в эпоху раннего и развитого средневековя. – Новосибирск: “Наука” . Сиб. отд-ние, 1991. – 192 с.
2. Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 77-100.
3. Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ. 1948. – С. 225-226.
4. Блаватский В.Д. О стратегии и тактике скифов.// КСИИМК. Вып. XXXIV. – М. – Л.: 1950. – С. 19-29.; Смирнов К.Ф. Вооружение савроматов // МИА. – № 101. – М.: Академия наук СССР, 1961. – 160 с.; Хазанов А.М. Сложные луки евразийских степей и Ирана в скифо – сарматскую эпоху // Материалная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: “Наука”, 1966. – С. 29-44; o‘sha muallif. Очерки военного дела сарматов. – М.: “Наука”, 1971. – 172 с.; Мелюкова А.И. Вооружение скифов. // Археология СССР. Свод археологических источников. Вып. 1-4. – М.: “Наука”, 1964. – 91 с.; Черненко Е.В. Скифский доспех. – Киев: Наукова думка, 1968. – 191 с.; o‘sha muallif. Длинные копя скифов // Древности скифо – сарматского времени. – М.: “Наука”, 1984. – С. 231-235.
5. Росляков А. А. Военное искусство народов Средней Азии и Казахстана в VI-XV вв. // Учен.зап. Туркм. гос. ун-та. Ашхабад, 1962. Вып. 21. – С. 207-244.
6. Агаджанов С. Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XII вв. – Ашхабад: Ылым, 1969. – 295 с.
7. Смирнов К.Ф. Вооружение савроматов …; Медведская И.Н. Некоторые вопросы хронологии бронзовых наконечников стрел Средней Азии и Казахстана // СА. – № 3. – М.,1972.
8. Сатимов Б.М. Оролбўйида қадимги харбий иш ва мудофаа тизими тарихи... – Б. 38.

9. Горбунова Н.Г. О вооружении среднеазиатских скотоводов в. до. н. э. – В в. н. э. // ИИ Российская археология. – М., 2000. – №2 – С. 40-51.; Гаибов В.А., Kocheленко Г.А. От Хорезма до Боспора: о “сарматской” посадке всадников // Проблемы истории, филологии, культуры. – М., 2013. – №2 (40). – С. 286-296.; Иванов С.С Военное дело ранних кочевников Средней Азии в евразийском контексте (на основе комплекса вооружения // Вестник Кыргызского националного университета. Юбилейный выпуск. – Бишкек, 2012. – С. 644-649; Яблонский Л.Т. Система вооружения элитного воина IV в. до. н. э. на востоке скифской ойкумены (древнейшие катафрактарии Евразии) // Война и военное дело в скифо – сарматском мире. – Ростов - на – Дону, 2014. – С. 417-434.
10. Насанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2018. – 440 б.; Дадабоев Х.В. Ҳарбий санъат тарихи. – Т.: 2013. – 36 б.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 302 б.; Сабурова С. Ануштагин – Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097 – 1231 йй.). – Т.: “Нихол”, 2008. – 162 б.; Саидов Ш. Султон Жалолиддин Мангуберди давлати ва жанговор ҳаракатлар харитаси. – Тошкент, 2000. – 184 б.; Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимги даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; масъул мухаррир: Д.Х. Зияева / – Т.: “Шарқ”, 2012. – 256 б.; Машарипов Қ. Ю. Жалолиддин Мангуберди – буюк ватанпарвар саркарда. – Тошкент: “Наврўз”. 2019. – 400 б.; Абдиримов Б.М. Икки буюк саркарда: Жалолиддиндан Қутузгача – Тошкент: “Ёшлар Медиапринт”, 2021. – 248 б; Юсупов А.Ш. Оролбўйи илк сак қабилалари тарихи. – Бухоро: “Дурдона”, 2023. – 149 б; Сатимов Б.М. Оролбўйи қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи. – Бухоро: “Дурдона”, 2024. – 163 б.
11. Юсупов А.Ш. Оролбўйи илк сак қабилалари тарихи. – Бухоро: “Дурдона”, 2023. – 149 б.
12. Сатимов Б.М. Оролбўйи қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи. – Бухоро: “Дурдона”, 2024. – 163 б.